

BO'LAJAK TARBIIYA FANI O'QITUVCHILARINING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPLEKS YONDASHUV O'RNI VA AHAMIYATI

Z.Xursanova

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda kompleks ishlab chiqarishning o'rnini va ahamiyatini tahlil qilindi. kompleks orqali o'qituvchilarning tanqidiy fikrlash, muammoli muammolarni hal qilish va ijodiy tajribalarini qayta yoritilgan. qayta tiklash shuni ko'rsatadiki, integratsiyalangan o'quv dasturlari va interfaol usullardan foydalanish, pedagogik jarayonda o'zining texnologik muammolarni va o'qitish metodlarini joriy etish mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, kompleks yondashuv, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlar, ijodiy yondashuv, integratsiyalangan o'quv dasturlari, interfaol usullar, pedagogik jarayon, texnologik yondashuv, innovatsion metodlar.

Pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida ayniqsa, bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining ilg'or xorijiy tajribalar va xalqaro baholash dasturlariga muvofiq innovatsion ta'lim texnologiyalarini samarali o'zlashtirishi, o'quvchilarda matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish uchun ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishni taqozo etadi. O'z navbatida mantiqiy fikrlash integral tavsifga ega bo'lib, falsafiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik jihatlar bilan bog'liqlikda mazkur jarayonga kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatdi.

Metodologik nuqtai nazardan kompleks yondashuv deganda ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda shaxsni shakllantirishda bevosita yoki bilvosita aloqadorlikka ega turli shart-sharoitlar va omillar majmuini integratsiyalash usuli tushuniladi. Shu bilan birga, kompleks yondashuv – bu metodologik, tashkiliy, boshqaruvga doir prinsip, fikrlash, bilish va tarbiyaviy vazifalarni hal etish metodi.

“Kompleks” tushunchasi o'zaro umumiylik, yaxlitlikka ega narsa-buyum, hodisalarning uyg'unligi, yig'indisi sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan mazkur istiloh bilan bog'liqlikda bugungi kunda “kompleksli (majmuaviy)” tushunchasi keng ommalashgan: maqsadli kompleks dasturlar, kompleks qaror, kompleks tadqiqot, kompleks rejalar, kompleks o'quv-metodik qo'llanma, tarbiyaga kompleks yondashuv va h.k.

Shaxs intellektual kompetentligining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida “mantiqiy fikrlash” ham kompleks yondashuvni taqozo etadi.

Kompleks (lot. kompleksus — bog'lanish, uyg'unlik) — narsalar, hodisalar, belgilar va boshqalarning majmui. Bu izchillik, yaxlitlik ma'nosini anglatuvchi tushuncha siyosat va jamiyatda qo'llaniladi va ko'pincha ma'naviy sohalarida, falsafa va fanda qo'llaniladi (masalan, kompleks chora-tadbirlar, kompleks tadqiqotlar va boshqalar).¹

Kompleks (lotinchadan Complex — bog'liqlik, kombinatsiya) — psixologiyada (birinchi navbatda psixoanalizda) „ongsiz holda shakllanadigan (yoki shunga majburlangan) g'oyalar, motivlar va munosabatlarning [hissiy jihatdan](#) psixikaning faoliyati, [shaxsiyat](#) va inson xatti-harakati" bo'yalgan to'plamini bildiruvchi tushuncha. Fanga Karl Gustav Yung tomonidan kiritilgan.²

Pedagogika ensiklopediyasida kompleks yondashuv tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

“Kompleks yondashuv (lot. complexus – aloqa, bog'lanish; qo'shib, qamrab olish) bir butunni tashkil qiluvchi narsalar, hodisalar, belgixususiyatlar majmui, yig'indisiga yaxlit tarzda yondashishni ifodalovchi tushuncha”

Kompleks yondashish ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va pedagogik hodisalarni har tomonlama chuqur tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonini kompleks yondashuv asosida tashkil etishda bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining obyektiv harakatlari fan mazmuniga muvofiq taqsimlanganligi va ketma-ketligi; ta'lim jarayonini kompleks yondashuv asosida tashkil etishda taklif etilgan vazifalar o'z maqsadiga ko'ra har bir bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilariga aniq bo'lishi; ta'lim jarayonini kompleks yondashuv asosida tashkil etishda bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining ichki intilishlari qo'yilgan vazifalarni hal qilishga undashi; ta'lim jarayonini kompleks yondashuv asosida tashkil etishda bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining o'zlashtirish yo'llari topshiriqning talab va mazmuniga adekvatligi; ta'lim jarayonini kompleks yondashuv asosida tashkil etishda obyektiv harakatning butun jarayoni, har bir kognitiv harakatni kuzatilishi va kerak bo'lganda tuzatilishidir. Kompleks yondashuv asosida ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etish natijasida pedagogik tayyorgarlikning o'ziga xos xususiyati bo'lajak tarbiyachilar yetuk kadr sifatida o'zini qayta kashf etadilar.

Shuningdek, kompleks yondashuv - bilim va ko'nikmalarning turli sohalarini o'zida mujassam etgan o'qitishning turli shakl va usullaridan foydalanishdir, ya'ni kompleks asosida samarali ta'limni ta'minlash uchun turli o'quv materiallari, usullari va texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini kompleks yondashuv asosida rivojlantirish - bu bo'lajak o'qituvchilarni valeologik kompetentligini ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ta'lim maqsadlarining kompleks muvofiqlashtirish asosida ta'lim olishda umumiy maqsadga erishish, bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llashni ta'minlashdir.

Demak, kompleks yondashuv asosida mantiqiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyati bo'lajak tarbiyachining pedagogik mikromuhit talablariga moslashtirish hamda ijodiy hamkorlikka bosqichma-bosqich tayyorlash, nostandartamaliy qarorlar qabul qilishga o'rgatish hamda nazariy jihatdan to'plangan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llashdan iborat.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva, Z. T. Ma'naviy tarbiyaning metodik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
2. Vaysburg, Z. A. Pedagogik innovatsiyalar: nazariya va amaliyot. – Moskva: Akademiya, 2015.
3. Sharipov, U. Tanqidiy fikrlash texnologiyalari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
4. Dewey, J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co., 1910.
5. Vygotsky, L. S. Thought and Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986.
6. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. – New York: Longman, 2001.
7. Polat, YE. S., & Buxarkina, M. Y. Sovremenniye pedagogicheskiye texnologii. – Moskva: Akademiya, 2019.
8. Yuldashev, A. Interaktiv usullarning ta'lim jarayonidagi o'rni. – Farg'ona: Ilm-farosat, 2021.
9. Novak, J. D. Learning, Creating, and Using Knowledge: Concept Maps as Facilitative Tools in Schools and Corporations. – New York: Routledge, 2010.
10. Nazarov, Sh. Ta'limda integratsiyalashgan yondashuvlar. – Toshkent: Sharq, 2018.